

## **TIL VA UNING JAMIYATDAGI O'RNI**

**Subonova Mahliyo Ravshanovna**

**Qashqadaryo viloyati Nishon tumani**

**24-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilning jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy funksiyalari, uning tafakkur va madaniyat bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ma'naviy dunyosini ifodalovchi ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** til, kommunikatsiya, tafakkur, madaniyat, ijtimoiy hodisa, tilshunoslik.

### **Kirish**

Til insoniyatning en muhim ijtimoiy vositalaridan biri bo'lib, u fikr almashish, bilimlarni uzatish va madaniyatni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Til nafaqat so'zlardan iborat bo'lib, balki u grammatik qoidalar, talaffuz, intonatsiya va imlo tizimlarini ham o'z ichiga oladi. Inson til orqali o'z fikrini ifoda eta oladi, hi-tuyg'ularini boshqalarga yetkazadi va boshqalar bilan samarali muloqot qiladi. Til inson tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyatga ega, chunki u orqali odam atrof-muhitni anglaydi, o'rganadi va o'zaro aloqada bo'ladi. Dunyoda minglab tillar mavjud bo'lib, har bir til o'ziga xos qoidalar, so'z boyligi va jozibadorligiga ega.

Til – bu faqatgina aloqa vositasi emas , balki insoniyat madaniy merosining ajralmas qismidir. Til orqali tarix, adabiyot, ilm-fan va san'at shakllanadi va avloddan avlodga yetib boradi. Tilshunoslik fanida tilga faqat Grammatik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida yondashish zamonaviy ilmiy qarashlardan hisoblanadi.

### **Asosiy qism.** Tilning asosiy funksiyalari

1. Kommunikativ (aloqa) funksiyasi – til orqali kishilar o'zaro axborot almashadilar. Bu tilning eng asosiy va universal vazifasidir.

2. Ekspressiv (ifoda)funksiyasi – inson til orqali o'z his-tuyg'ularini, kechinmalarini ifoda etadi. Bu tilning emotsional jihatini tashkil etadi.
3. Kognitiv (bilish) funksiyasi – til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u insonning fikrlash, anglash va dunyoni idrok etish jarayonida vositachilik qiladi.
4. Kumulyativ (merosni saqllovchi) funksiyasi – til orqali tarixiy tajriba , xalq donishmandligi va ilm-fan yutuqlari avloddan avlodga o'tadi.
5. Identifikatsion (o'zligini anglash) funksiyasi - til insonning etnik, milliy va madaniy o'ziga xosligini belgilovchi asosiy belgilaridan biridir.

### Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik

Til va tafakkur bir-biridan ajralmas , mushtarak tushunchalardir. Til inson tafakkurining shakllanishida va uning rivojlanishida vositachi vazifasini bajaradi. Bu jihat Lev Vygotskiy, Chomskiy kabi olimlarning ishlarida chuqur yoritilgan. Inson fikrlashi til vositasida shakllanadi, rivojlanadi va ifoda topadi. Shu sababli, tilni o'rganish tafakkurni o'rganishning kalitidir. Har bir xalqning tili – o'sha xalqning madaniyatidir. Til vositasida xalqlarning urf-odatlarini, dunyoqarashi, qadriyatlarini va tarixi ifodalanadi. Masalan , metafora va frazeologik birliklar xalqning hayot tarzini, tarixiy voqealarini o'zida aks ettiradi va avloddan avlodga yetkazadi.

Tafakkur esa inson hayotidagi asosiy psixik jarayon bo'lib, uning chuqur o'rganilishi inson tafakkurining rivojlanishi va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy ilm –fan tafakkurning nevropsixologik asoslarini, uning ta'limdagi o'rni va inson ongidagi ahamiyatini yanada aniqlashga harakat qilinmoqda.

### Xulosa

Bir so'z bilan aytganda, til insoniyat madaniyatining asosi bo'lib, u nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki fikr, tafakkur, his-tuyg'u va tarixiy merosni mujassamlashtiruvchi ijtimoiy hodisadir. Tilni chuqur o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki ijtimoiy fanlar, psixologiya va madaniyatshunoslik uchun ham dolzarb masaladir.